

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ЖАҲОН ТАРИХИ КАФЕДРАСИ**

ЖАҲОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ

БУХОРО – 2021

Илмий – амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2021 йилдаги Республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режасига кўра Бухоро давлат университетида 2021 йилнинг 8 октябр куни “Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари” мавзусида Республика миқёсида илмий-амалий анжумани белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Ҳайитов Ш.А. – БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Бухоро давлат университети ректори,
иктисод фанлари доктори , профессор

О.Х.Хамидов

Тарих ва маданий мерос факультети декани в.в.б.

Ж.Р.Жўраев

Жаҳон тарихи кафедраси мудири, тарих
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

О.Р.Рашидов

Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

К.Ж.Рахмонов

Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчisi, (PhD)

М.З.Орзиев

Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчisi, (PhD)

Б.Н.Ризаев

Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчisi, (PhD)

Ж.Ш.Ҳайитов

Тўплаб нашрга тайёрловчилар:

К.Ж.Рахмонов - Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

Ш.М.Мирзоев - Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчisi

**Илмий-амалий анжуман материалларида чоп этилаётган мақола ва
тезислардаги матн, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъулдирлар**

Buxoroda turkman urug’lariga oid etnotoponimlar juda ko’p. Turkmanlarning urug’ nomlari bilan aytildigan joy-nomlarini yana davom ettirish mumkin. Kattamikichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o’ziga xos xususiyatlari bo’ladi. Bularni o’rganishda ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan birga dala tadqiqotlarida qo’lga kiritilgan materiallarga tayanib tahlil qilinsa yanada aniqlik oshardi. Hozirda ayrim joy nomlarini o’zgartirish orqali zamonaviy nomlar qo’yishga harakat kilinmoqda. Bu juda katta xatolik, chunki, joy nomlari tarixni, madaniyatni, etnik mansublikni bilishda muhim ahamiyatga ega.

BUXORO TARIXINI O’RGANISHDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNI O’RNI

O’taeva Feruza

Buxoro Davlat Universiteti

Buxoro tarixi kafedrasи

katta o’qituvchisi

Tarix shundan dalolat beradiki, inson o’zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat quollarini o’ylab topdi va mehnat quollari yordamida ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqdi. O’sha ortiqcha mahsulotlarni sotish uchun bozorlarni tashkil etdilar. Odamlar gavjum va ko’p bo’lib o’zlaridan ortib qolgan qo’shimcha mahsulotlarni sotadigan joylarda dastlabki shaharlar paydo bo’ldi.

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovastion rivojlanish yo’liga o’tmoqdamiz.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yilni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili”, 2019 yil “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”, 2020 yil “Ilm -ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi. Albatta, yillarning nomlanishi jarayonida tarixiy taraqqiyotda juda katta o’zgarishlar va yangilanishlar, innovatsion g’oyalar amalga oshirildi. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni

bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovastion g'oyalar, innovastion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.³⁵⁰

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan mamlakatimiz ilm-fani, etakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasini yanada rivojlantirishga e'tibor qaratildi. 1992 yil 21-iyuldagagi "Ilm-fanni rivojlantirishni va innovatsiya faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida" gi qarori ilm-fan va inovastiyalarni rivojlantirish sohasidagi dastlabki hujjatlardir.

Innovastion g'oyalar va tendinsiyalar borasidagi izlanishlar samarasida Buxoro tarixida ilm-fan taraqqiyoti va rivojlanish jarayonida juda katta o'zgarishlar va yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, arxeologik tadqiqotlar Buxoroning qadimiyligi va stivilizastiya jarayonlarining tarixi qaytadan keng o'rganildi. O'zbekiston YUNESKO ga a'zo bo'lganidan keyin, Buxoroning qadimiyligi yodgorliklari va madaniy obidalariga e'tibor ya'nada oshdi va tadqiqot ishlari jonlantirildi. Arxeologik obektlarga innovastion nuqtai nazardan yondashildi. Tarixdan ma'lumki insoniyatning madaniy va ma'rifiy jihatdan rivojlangan maskani bu ilk shaharlardir. Buxoroning eng qadimgi shaharlaridan biri bo' Poykentdir. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda bu hududda insoniyat bronza davridan boshlab yashay boshlagan. O'zbekistonda ikkinchi jahon urushi yillarida FAning filialining tashkil etilishi Arxeologik tadqiqotlarning Buxoroda va ayniqsa, Poykentda ishlari keng olib borilgan. Jumladan, 1940 yil Ermitaj muzeyining ilmiy xodimlari A.Yu.Yakubovskiy, V.N.Kesaev va V.A.Shishkin Poykentning topografik xaritasini yaratdilar. 1980 yillarda O'z FA Arxeologiya institutining etakchi ilmiy xodimi A.R.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedovlar va Ermitajning ilmiy xodimi G.L.Semyonov ishtirokida Poykentda qazishmalar o'tkazildi. 1990-2000 yillarda O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspedisiyasi Poykent shahar xarobalarini o'rganib, yillik hisobotlarni yozib qoldirdilar. 2000-2002 yillarda Tayvan universiteti arxeolog aspirantlari Jon Stenli Beyker boshchiligidagi shaharning g'arbiy qismida izlanishlar

³⁵⁰ Шавкат Мирзиёев Олий мажлисга мурожатномасидаги нутqi ."Халқ сўзи" газетаси. 2018 йил 22-декабр

olib bordilar. Poykentdagи uylar Varaxsha va Afrosiyob uylaridan farqli ravishda qurilganligini aniqladilar. 2002- 2004 yillarda shaharning ark qismida B.Abdullaev va N.Sobirovlar izlanishlar olib bordilar. 2005 yilda besh vaqt nomoz o'qiladigan masjid topib o'rganilgan. Zamonaviy innovastiyalar yordamida keyingi o'n yil davomida Poykentda arxeologik izlanishlar samarasi sezilarli darajada amalga oshirildi. 2017 yil Germaniya tadqiqotlar va tajribalari bilan hamkorlikni yanada jonlantirdilar.

Zamonbobo madaniyati Qorako'l tumani markazidan 15 km shimoliy-g'arbda joylashgan Zamonbobo (nomi shundan) ko'li sohilidagi makon (maydoni 170 m²) va qabriston (44 qabr) o'rganilgan. Qabristonda Ya.G'ulomov (1950-1951, 1953-1954), A.Askarov (1961, 1964) arxeologik qazish ishlari olib borgan. Qabilalar yarim yerto'la, yengil chaylalarda yashagan. Yerto'la o'tov shaklida, ustunlari chuqurchalarga o'rnatilgan, usti qamish bilan yopilgan va somonli loy bilan suvalgan. O'choq va don saqlanadigan o'ralar devor yaqinida bo'lgan. Qabrlarda murdalar yakka, juft, ayrim holda uchtadan (erkak, ayol, bola) yonboshlatib ko'milgan. Qazilmalarda sopol siniqlari, chaqmoqtoshdan ishlangan quollar - yaproqsimon paykonlar, pichoqsimon tosh parchalar, surma toshlar, jez oyna, pichoq, kurakchalar, lazurit, aqiq, feroza, serdolik, jilvir toshdan ishlangan munchoqlar, oltin marjon topilgan. Sopol idish (tagi tekis va dumaloq xum, xumcha, to'g'ri burchakli suvdon, tovoqcha) lar naqshsiz bo'lib, asosan, qo'lda, ayrimlari charxda yasalgan. Ularning deyarli barchasi yupqa, jarangdor, ba'zilari qizil angob bilan bo'yalgan. Chaqmoqtoshdan ishlangan qadama o'roqlar, yorg'uchiq bo'laklari, hovoncha dastalar va ko'mirga aylangan bug'doy, arpa donlari, sigir, qo'y, echki suyaklarining topilishi, 1990-2005 yillarda arxeologik tadqiqotlar natijasida hosildorlik ma'budasining kichik sopol haykalchasiga mo'l-ko'lchilik ramzi sifatida e'tiqod qilingan bo'lsa kerak. 2002 yillarda yodgorlik sahnidan ko'plab chaqmoqtosh va shaffof tosh jinslaridan ishlangan mikrolit qurollari topib o'rganilgan.³⁵¹

³⁵¹ Кабиров Ж, Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси. Т., 1990.-Б-71

Keyingi yillarda arxeologik tadqiqotlar uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratildi. Natijalar ko'rsatadiki, badaxshon toshidan ishlangan munchoq, Janubiy Turkmanistondagi qabilalarning sopol idish va boshqa buyumlari Zamonbobo madaniyati qabilalarining qo'shni qabilalar bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqada bo'lganligini ta'kidlanadi.³⁵²

1949-1954 yillarda Varaxsha tarixi va me'morligi o'rganildi. Varaxsha va uning atrofida V.A.Shishkin (1937-1939, 1947-1954) keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan; A. Muhammadjonov (1975-1977), O.V.Obelchenko (1977-1979), G.V.Shishkina (1987-1990) ham Varaxshaning ayrim qismlarida qazishmalar olib borishgan. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, Varaxsha miloddan avvalgi 2 - asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko'targan.³⁵³ Mustaqillikning dastlabki yillarida Varaxsha yodgorligiga zamonaviy innovastion integrastiallashuv yo'li bilan xorijiy davlatlarning etuk olimlari ya'ni arxeologlari jalgan etilib Buxoro tarixiga juda katta hissalar qo'shildi. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan.³⁵⁴ Ko'plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, elkasidan o'q yegan arxar, yelib borayotgan jayran, bedanalar, ayol boshli baxt qushi Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog'lagan suvoriy hamda ko'pdan-ko'p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiy va girih parchalari uchraydi. Bu ma'lumotlar jamlanib, qator olimlar tomonidan Buxoro arxeologiya va etnografiyasiga oid kitoblar va uslubiy qo'llanmalar tayyorlangan.

Buxoro qadimdan ilm va ma'naviyat markazi. Buxoro tarixini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar jonlantirilib, xorijiy innovastion tajribalarga tayanib ish olib borishga e'tiborni oshorish davr talabi.

Buxoro xalqi o'zining yangi innovatsion g'oyalari bilan tarixdan guvohlik beruvchi qadimiylar joylarni o'rganadi va tahlil qiladi.

³⁵² Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари. Тошкент 2000.-Б-56

³⁵³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т: 2001.2-том.-Б- 435

³⁵⁴ Б. Мирзоулов Бухоро тарих зарвараqlарида.Т., 2016.-Б-8-9

рихидан	145
Муродова Дилрабо. ХХ асрнинг 30-йилларида Бухоро давлат педагогика институти фаолияти.....	150
Назарова Саодат. Муҳиддин Қори Ёқубов - ўзбек саҳна санъатини жаҳонга танитган санъаткор.....	155
Остонов Жаҳонгир. ХХ асрнинг 20 йилларида Афғонистон ва Бухоро алоқалари.....	159
Охунжонова Шаходат. Тошкент савдогарларининг ҳорижий мамлакатларга савдо сафарларининг ютуқ ва муаммолари (1991-2020 йиллар).....	163
Очилов Фарруҳ. Европа антикшунослиги масаласи – жаҳон тарихининг долзарб муаммоси сифатида.....	169
Равшанов Шербек. Туркистонга Россия империяси аҳолиси миграциясининг ижтимоий тарихи.....	173
Ражабов Қаҳрамон. Жаҳон мамлакатларининг класификацияси.....	177
Ражабов Ойбек. Бухоролик ўрта аср исломшунос олимлар.....	185
Рахматов Рамшод. Сибир хонлигининг Бухоро билан иқтисодий алоқалар тарихи.....	189
Рахмонов Камол. Афғонистоннинг ХХ аср 20-йиллари даври тарихини ўрганишга доир айрим мулоҳазалар	192
Рашидов Ойбек. Ўзбекистонда миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонида кураши мавзусининг манбашунослиги таҳлили.....	197
Рашидов Ойбек. СССРда Сталин қатағонларининг бошланиши.....	203
Ризаев Бахтиёр. Усмонийлар империясининг кўчириш сиёсатига доир мулоҳазалар (XVI-XX аср бошлари).....	207
Самадова Кимёнисо. Бухоро атрофидаги “Канпирак девори” тарихи хусусида.	212
Саъдуллаева Вазира. “Бухоро амири ҳазратларининг кундалиги” асари асосида Россияда таълим масалалари.....	217
Тўраев Анвар. Бухоро туркманлари билан боғлиқ жой номлари	

таҳлили.....	221
Ўтаева Феруза. Бухоро тарихини ўрганишда археологик тадқиқотларни ўрни.	225
Ҳайдарова Ҳанифа. Носир Хисравнинг жахон фалсафасидаги ахлоқий ғоялар	228
Ҳайитов Жаҳонгир. Жаҳондаги миграция жараёнларининг экин навларини тарқалишига таъсири.....	232
Ҳайитов Шодмон. 1914 – 1918 йилларда Россия – Эрон, Россия – Афғонистон чегарасидаги аҳволга доир (архив ҳужжатлари асосида).....	236
Ҳакимова Гулноза. Бухоро амирлиги таркибига кирувчи Жанубий Туркистондаги ўзбек бекликларининг сиёсий хаётига бир назар.....	241
Халилова Зилола. XX асрда хорижий шарқ мамлакатларида таълим ислоҳотлари ва унинг Марказий Осиёга таъсири	246
Ҳамроев Дилмурод. Ўзбекистонда иқтисодий ўзгаришлар жараёнининг расмий матбуотда ёритилиши	253
Ҳасанов Камолиддин. Ўзбекистон ва Туркия абадий дўстлик сари.....	256
Шарипов Умид. Дунёвий бошланғич таълимнинг вужудга келиши тарихига бир назар.	260
Элова Дилноза. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонга янги ҳарбий қурол – яроғларининг кириб келиши тарихи.....	263
Эргашев Акобир. “Осор ул бокия” асарида ҳалқ тақвимлари.....	268
Эрназаров Шермуҳаммад. “Цивилизация” тушунчаси хусусида айрим мулоҳазалар.....	270
Юсупова Манзура. Сайёҳлар томонидан Бухоро воҳаси маросим таомларининг ўрганилиши.....	274